

MA'RIFATPARVARLAR HARAKATIDA MILLIY TARBIYAGA
BIR NAZAR..."

Usmonov Ma'ruf Azamovich¹

¹ Qo'qon shahar xokimi, y.f.n.

Hasanov Muxtorjon Qaxramonjon o'g'li¹

¹ Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 06.08.2024

Revised: 07.08.2024

Accepted: 08.08.2024

Mazkur maqolamizda shoir, dramaturg, publitsist, shu bilan bir qatorda yetuk pedagog, jadid Abdulla Avloniyning tarbiya va ilmga oid qarashlari hamda Turkiy guliston yoxud axloq" asarining pedagogika hamda tarbiya masalalaridagi o'rni yoritilgan.

KEYWORDS:

Pedagog, Jadid, tarbiya hamda Ta'lim, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari, Milliy tarbiya, Tarbiyasizlik, axloq, axloqsizlik.

Introduction: T Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqi og'zaki ijodida "Yo'v qochsa botir ko'payadi", "Do'ppining tagida odam bor", "Devorning ham qulog'i bor" kabi maqol hamda naqlar mavjud bo'lib, bular ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan bunday bitiklar, tariximizning qonli kunlari va qatag'on davrlarining ijodi ekanligini bugun anglab yetyabmiz. Ayniqsa, o'tmishimizning eng yaqin kunlari bo'lgan jadidchilik davri tarixini yodga olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Jadidlar harakati Turkiston o'lkasida tezdagina yoki tasodifan shakllanib qolgan harakat bo'lmay, balki chuqur asoslarga ega bo'lgan, tarixiy ildizlardan oziqlangan, vujudga kelgan holda shakllanib va kuchli siyosiy-ijtimoiy hamda amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatga aylangan oqimdir. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma'rifatparvarlik g'oyalariga, ikkinchi tomondan ilg'or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va milliy tarbiya, o'zligini saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Ushbu so'zga izoh berib ketar ekanmiz "jadid" arabcha so'z bo'lib "yangi" degan ma'noni anglatadi. Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo'q. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloq yoyib rivojlandi. So'zimiz boshida biz jadidchilarimiz haqida gapirar ekanmiz ular bilan faxr tuyg'usini his etamiz. Ular bizga, kelajak avlodga o'chmas va shonli tarixni qoldirganlar. Bobolarimiz

ya'ni o'z jonlarini ham ayamagan jadidlarimiz milliy tarbiya, qadriyatlar, ilm va boshqa masalalar haqida ko'plab o'zlarini ilmiy fikrlari bilan yondashganlar va targ'ib etganlar.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy me'rosga ega. Bundan tashqari esa, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan.

Tarbiya, avvalo, ilmiy-pedagogik hamda ijtimoiy ahamiyatga molik hodisa. Shunday ekan, albatta, uning muallifi – egasi ham mavjud bo'ladi. Dunyo bo'yicha har bir millatning o'ziga xos tarbiyasining muallifi ham ana o'sha millatning o'zi hisoblanadi. Muayyan millatga tegishli bo'lgan, nazariyasi, uslubi, usullari va mezonlari bilan boshqa millatlar tarbiyasidan ajralib turadigan tarbiyaning mazkur shakli milliy tarbiya, deb ataladi. Milliy tarbiya tushunchasining ma'zmun-mohiyati "millat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu tushunchaning mazmunini ochmay turib "milliy tarbiya" tushunchasining ma'zmunini anglab bo'lmaydi.

Manbalarni kuzatar ekanmiz: "Milliy" tarbiyaning manbai – milliylikdir! "Millat", "milliylik", "milliy g'urur", "milliy odob", "millatlararo muloqot madaniyati" tushunchalarining o'zagini arabcha "mil" so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada "o'zak", "tub mohiyat", "negiz" ma'nolarini anglatadi... Demak, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosini "yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar na'munasida shakllantirish, ta'lim bermoq" sifatida ta'riflash mumkin".

Shuni aytib o'tishimiz joizki, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Yuqorida keltirilgan olimlarining "milliy tarbiya" tushunchasiga oid qarashlari sintezlagan holda shaxsiy, mualliflik ta'rifimizni bayon etadigan bo'lsak, bizningcha, "milliy tarbiya bu–ajdodlarning ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy, diniy hamda iqtisodiy-madaniy merosi asosiga qurilgan, yosh avlodni millatning tarixiy va strategik intilishlarini ro'yobga chiqarishga undovchi maqsadli, umummilliy faoliyat" hisoblanadi.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" deb ta'kidlaydilar prezidentimiz,

Milliy tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi. Bu bilan tarbiya barcha sohadagi taraqqiyotning asosi ekanligini, ayni damda tarbiyasizlik esa barcha sohani halokatga olib boruvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Bobomizning juda katta asarlaridan biri “Turkiy guliston yoxud axloq asari”ni ham yodga olishimiz mumkin. U tarbiya tushunchasiga “tarbiya – “pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o’ldug’indan shul xususda bir oz so’z so’ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmaq, tanini pok tutmaq, yosh vaqtdan maslakini tuzatmaq, yaxshi xulqlarni o’rgatmaq, yomon xulqlardan saqlab o’sdurmaqdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog’i lozimdur. Zeroki, “Hassinu axloqiko’m” amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmaqg’a amr o’linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo’lishining asosiy panjasi tarbiyadur. Axloqimizning binosining go’zal va chiroyli bo’lishiga tarbiyaning zo’r ta’siri bordur, ba’zilar “tarbiyaning axloqqa ta’siri yo’q, insonlar asl yaratilishida qanday bo’lsalar, shunday o’sarlar, tabiat o’zgarmas”, – demishlar deya ta’rif beradi.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini mashhur pedagog, ma’rifatparvar adib va shoir Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan o’ziga xos axloq kodeksi desak, also xato bo’lmaydi. Mazkur asar maktablarda bolaning axloqi, keng va teran fikrlashi, tarbiyasi uchun o’quv qo’llanma sifatida o’qitilgani ayon. Yozuvchining quyidagi fikrlari ham bu ma’lumotlarni quvvatlaydi: “Men bu asarni nochizonamni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug,, adabiyot muhoblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim” .

Yozuvchi e’tirofga ko’ra, haqiqiy axloq egasi, ya’ni o’z aybini bilib, uni tuzatmoqqa harakat qilgan kishi chinakam bahodir va pahlavondir. Asar muallifi millatning barcha farzandlarida ana shu xislatni ko’rishni orzu qiladi.

Ayonki, tarbiya tushunchasisiz insoniyat hayoti va kishilik jamiyatini tasavvur qilib bo’lmaydi. Tarbiya, axloq va ta’lim tiriklikning muvozanatini ushlab turuvchi muhim tirgaklardir. Tarbiya yoshlikdan to’g’ri yo’lga qo’yilmasa, keyin uni o’zgartirib bo’lmaydi. Tarbiyasizlik nafaqat shaxsni tanazzulga boshlaydi, balki xalq, millat va vatan taraqqiyoti uchun ham yovdir. Go’yoki, bir hunarmand kulolchi tomonidan yasalgan ko’zaga qaytadan shakl berib bo’lmagani kabi, o’z vaqtda berilmagan tarbiyani ham kechiktirib boshlashdan ma’no yo’q. Abdulla Avloniy yozadiki, xususan, temirchining bolasi tarbiyali bo’lsa olim bo’ladi, ammo xulqi buzuq bo’lsa u Luqmoni hakim farzandi bo’lsa ham baribir zolim bo’lib qolaveradi. Bu o’rinda mazkur fikrlarini muallif payg’ambarimizning quyidagi hikmatlari bilan dalillaydi: “Bir tog’ning o’rnidan ko’chib ketganini eshitsangiz, ishonangiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo’ldi deb eshitsangiz, ishonmangiz” .

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Avloniy tarbiyani juda keng ma’noda tushunadi. Shu sababli bolalarni aqliy rivojlantirish bilan birga, jismoniy sog’ligi xususida ham ko’p o’rinlarda to’xtalib o’tadi. Yurt ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bog’liqdir. Shu bois Abdulla Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. Shuningdek, adib ilmsizni jaholat bilan tenglashtirib, shunday fikrlarni bildiradi: “Jaholat deb o’qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlikni aytilur”, - deydi. Shuni aytish joizki, ta’lim-tarbiya, axloq va ilmni bir-biriga bog’lab, ularni uzluksiz ravishda yonma-yon olib borish kerak. Tarbiya va ilm har birimizning mukammal shaxs sifatida gavdalanishimiz uchun kerak. Tarbiyali va

mushohadali yoshlar vatan kelajagidir. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari bizga ana shularni o‘rgatadi.

References:

1. “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019/305-B
2. X.A.Abdupattayev. “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tarbiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari” Avtoreferat. pedagogika fan. (PhD) diss. Namangan-2023. B.20
3. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... – T.: Ma‘naviyat, 2014. – B. 131-132
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 3.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent “Ma‘naviyat” 1998. – B. 33.
6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent “Ma‘naviyat” 1998. – B. 35